

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova**

Bo'lajak o'qituvchilarda "Taqidiy tafakkur" tushunchasining metodologik asoslari  
va o'ziga xos xususiyatlari..... 8

**T.A.Egamberdiyeva, J.A.Qurbanov**

Bo'lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lif texnologiyalari... 12

**S.Mannapov**

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida musiqiy meros omili va imkoniyatlari..... 17

**A.Abdullayev, J.X Abdullayev**

Kichik mакtab yoshidagilarni o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ayrim omillar ..... 21

**J.G'.Obidov**

Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni  
takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari ..... 25

**A.T.Xasanov**

Harbiy ta'lif bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning  
dolzarb masalalari..... 31

**X.X.Abdurahmov**

Iqtidorli o'quvchi yoshlarni yengil atletika turlariga saralash texnologiyasi ..... 37

**R.M.Ubaydullayev**

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi  
va komponentlari..... 42

**A.N.Qosimov**

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish samaradorligi..... 49

**D.R.Murodova, H.M.Ashurova**

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida interfaol metodlarni rivojlantirish..... 55

**A.I.Tuychiyev**

Jismoniy mashqlar bilan o'quvchilarni mustaqil shug'ullanish malakalarini shakllantirish..... 61

**S.T.Xakimov**

Chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus aerobik mashqlar qo'llash samaradorligi.... 65

**O.M.Karimov**

Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodlari .. 69

**D.M.Redjabova**

O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlashda xotin-qizlarning faoliyatiga  
yangicha yondashuvlar ..... 72

**B.X.Baydjanov**

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish – zararli axborotlar tahdididan  
himoyalanish omili sifatida ..... 76

**Ш.В.Джалалов**

Влияние дифференцированного подхода на формирование здорового образа  
жизни у школьников ..... 81

**M.A.Xonbabayeva**

Logopedik ritmika fani asosida bo'lajak logopedning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning  
pedagogik imkoniyatlari..... 85

**Ш.В.Джалалов**

Физическая подготовленность 11-12 летних девочек общеобразовательных школ  
Ферганской области ..... 91

**A.B.Mirzayev**

Chet tilni zamonaviy o'qitish tizimida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari..... 95

**G.K.Yakubova**

O'quvchi-yoshlar qomatining konstitutsion tiplari va ularni antropometrik bahollash usullari..... 99

**O.Q.Xasanova**

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini  
takomillashtirish modeli ..... 104



## BO'LAJAK PEDAGOGLARNING G'OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

### МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ И МИРОВОЗЗРЕНИЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

### METHODS OF DEVELOPING IDEOLOGICAL AND IDEOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS

**Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li**   
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

#### *Annotatsiya*

*Maqolada bo'lajak pedagoqlarning g'oymaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoqlarning g'oymaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish amaliy metodik tizimi va bo'lajak pedagoqlarning g'oymaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoqlarning g'oymaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodlari tahlil qilingan.*

#### *Аннотация*

*В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития идеологической и мировоззренческой компетентности у будущих педагогов, практическая методическая система развития этой компетентности и эффективность развития идеологической и мировоззренческой компетентности у будущих педагогов. Также анализируются методы развития идеологической и мировоззренческой компетентности у будущих педагогов.*

#### *Abstract*

*The article explores the theoretical and methodological foundations for developing ideological and ideological competence in future educators, the practical methodological system for developing this competence, and the effectiveness of developing ideological and ideological competence in future educators. Additionally, the methods for developing ideological and ideological competence in future educators are analyzed.*

**Kalit so'zlar:** pedagoqlarning g'oymaviy-mafkuraviy kompetentligi, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, ma'nnaviy-axloqiy kompetentlik, kognitiv, baholash, konseptual asos.

**Ключевые слова:** идеологическая компетентность педагогов, компетентность, совершенствование, педагогическая, технологическая, модельная, дидактическая, духовно-этическая компетентность, познавательная, оценка, концептуальная основа.

**Key words:** ideological competence of pedagogues, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, spiritual-ethical competence, cognitive, assessment, conceptual basis.

## KIRISH

Globallashuv jarayonida mafkuraviy kurash o'zining yuqori nuqtasiga chiqayotgan bugungi kunda, mafkuraviy ta'sirlar avvalo, yoshlarning ongini zaharlash va ularni o'z manfaatlari yo'lida bir tomonlama foydalanish oqibatlari shuni yana bir bor isbotlamoqdaki, avvalo mana shu qatlam orasida milliy g'oya targ'botini keng ko'lamda yoyish, mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, g'oymaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy uslublarning o'rnini ham inkor etmagan holda, uni yangicha talqin etish, boyitish, turli shakllarda zamонавиylashtirish foydalidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

G'oymaviy-mafkuraviy jarayonlar tahlili, g'oymaviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda ham o'rganishlar davom etmoqda. Jumladan, milliy g'oya va o'zlikni anglash muammoli B.Saparov, mafkura tushunchasi, milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma'naviyatini va milliy tarbiya muammolari M.Quronov, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari M.Bekmurodov, ijtimoiy-milliy ongliilik, faoliik, milliy g'urur hamda iftixor tuyg'usini shakllantirishning asosiy manbalari bo'lgan milliy g'oymaving mohiyati I.Ergashev, ma'naviyat hamda

mafcura tushunchalari-ning uzviy bog'liqligi va aloqadorligi, mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalalari A.Ochilidiyev, milliy rivojlanish jarayonida ma'naviy-mafkuraviy salohiyatni shakllantirish muammolari X.Jumaniyozov, milliy mafkurada vorisiylik muammosi O.Mamatovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif – bu ta'lif tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u talabalarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga oladi. Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lifning ahamiyati shulardan iborat:

1. Individual yondashuv: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif talabalarning o'z imkoniyatlarini va istaklarini hisobga oladi, bu esa ularning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini oshirishda samarali natijalar beradi.

2. Ma'naviy rivojlanish: Pedagoglar o'zining g'oyaviy-mafkuraviy pozitsiyalarini shakllantirish uchun shaxsga yo'naltirilgan metodikalardan foydalanadilar. Bu ustida talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

3. Kritik fikrlashni rivojlantirish: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif talabalarni mustaqil fikrlash va analiz qilishga undaydi. Bu esa ularning g'oyaviy-mafkuraviy bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Faol ishtirok etish: Bunday ta'lif sharoitida talabalar o'z fikrlari, qarashlari va tajribalari bilan faol ishtirok etishadi, bu esa ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Mas'uliyat hissi: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif vositasida pedagoglarning ijodkorligi va mas'uliyati oshadi, chunki ular o'z shogirdlari uchun samarali o'qitish strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak.

6. Ta'lif sifati: Bunday yondashuv bilan olib boriladigan ta'lif sifati yuqori bo'ladi, chunki har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

7. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif innovatsion metodlarni joriy etish imkoniyatini yaratadi, bu esa bo'lajak pedagoglarni yangi g'oyalalar va yondashuvlar bilan tanishtirishga yordam beradi.

Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish metodlari — bu yosh avlodning g'oyaviy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan usullar va vositalar jihatidan faoliyatdir. Ushbu metodlar yoshlarning jamiyatdagi rolini, inson huquqlarini, milliy qadriyatlarni, madaniy merosni va boshqa muhim konsepsiyalarni tushunishga yordam beradi. G'oyaviy tarbiya metodlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Ma'rifiy metodlar: Dasturlar, seminarlar, treninglar va mahorat darslari orqali bilim berish.

2. Tadqiqot usullari: Oquvchilarni mustaqil tadqiqot olib borishga rag'batlantirish, ya'ni ularni yangi g'oyalarga erishishga yo'naltirish.

3. Diskussiya va muhokama: Mavzu bo'yicha bahslashish orqali turli qarashlarni o'rganish va muhokama qilish.

4. Amaliyot usullari: Jamoat ishlari, ijtimoiy loyihalarda qatnashish, volontyorlik faoliyati orqali amaliy tajriba orttirish.

5. Adabiyot va san'at vositalari: Kitoblar, filmlar, teatr va boshqa san'at shakllari orqali g'oyalarni yetkazib berish.

6. Rol o'ynash: Ijodiy vazifalar orqali turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini namoyon qilish.

7. Etik O'rgatish: Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun maxsus darslar tashkil etish.

8. Kasb-hunar ta'limi: Yoshlarning kasbiy jarayonlarda ishtirok etishini ta'minlash.

Ushbu metodlarning samaradorligi har bir jamiyatning madaniyati, an'anasi va maqsadlariga qarab o'zgarishi mumkin. G'oyaviy tarbiya yoshlarga faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularning shaxsiga rivojlanishiga ham ko'maklashadi.

Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishda sotsiologiya, psixologiya, sotsial-psixologiya, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy fanlar metodlaridan ham foydalanish muhim. Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishda sotsiologik so'rov, qiyosiy tahlil, bahs-munozara, xozirgi zamonda keng kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ineterfaol uslullaridan: "klaster usuli", "Ajurli-arra", "Ekspert baholash" usuli, "Delfi" usuli", "Pattern" usuli, "O'yinlar nazariyasi" usuli; "Fokus guruuhlar" usullaridan ham foydalaniлади.

Zamonaviylashtirish an'anaviylikni inkor etmasligi muhim. Targ'ibotda an'anaviy uslublardan zamonaviy tarzda foydalanish samaralidir. Turli debatlar, ta'lif tizimidagi targ'ibot texnologiyasi

## PEDAGOGIKA

sifatida as osiy mazmun kasb etuvchi - "ajurli arra" (ya'ni, turli mavzularga nisbatan talabalarning munosabatlarni ikki guruhga bo'lingan ravishda tahlil qilish), "klaster", ya'ni axborotlarni tarqatish, shuningdek, "munozara", "o'z o'rningni top" ya'ni, agar auditoriyada muayyan mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa, mazkur metod yordamida muammo yechimi aniqlanadi. Uning mazmuni darsning asosan kirish qismida qo'llaniladi, o'tilayotgan mavzuga nisbatan turli yondashuvlar mavjudligi aytildi. Bu bir tomondan.

Ikkinchi tomondan talabalar fikrini bayon qilishi, o'zgartirishga imkon tug'iladi. Nihoyat dars so'nggida o'qituvchi mavzuni o'zlashtirish darajasini baholaydi. Bundan tashqari bugun pedagogik texnologiyaning "Debatlar" usuli kabi interfaol usullaridan keng va ommaviy ravishda ta'limgiz tizimlarida foydalanish milliy g'oya targ'ibotida yetakchi mazmun kasb etadi. "Debatlar" asosida darsni tashkil etishdan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda talaba o'z yondashuvining to'g'riligiga o'zlarini ishontirishdir. O'z fikrini aniq, lo'nda bayon etish, buning uchun to'g'ri dalil va xulosa topish ko'nikmasini shakllantirishda —debatlar samarali metod hisoblanadi.

Zamonaviylashtirish an'anaviylikni inkor etmasligi muhim. G'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy uslublardan zamonaviy tarzda foydalanish samaralidir.

Milliy g'oya targ'iboti va tashviqotining asosiy usullaridan biri - "Tanqidiy fikrlash" usuli hisoblanadi. Bu faqat tanqid qilish yoki e'tirof etmaslik degani emas. Tanqid holis ijodiy va amaliy bo'lishi, aniq xulosalarga, takliflarga tayanishi lozim. Vazifasi: Demokratik jamiyatda har bir fuqaro muammoni oqilona yechish qobiliyatiga, salohiyatiga, tafakkuriga, ilmiga ega bo'lishi lozim. Shu boisdan milliy g'oyani aholi va ayniqsa, yoshlar orasida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishda ta'limgiz texnologiyasining o'rni beqiyosdir. Shu boisdan, talabalarni bahs-tortishuv orqali masalaning yechimini topishga ko'proq jalb qilish lozim. Bu ularni fikrlashga undaydi. Faolligini ma'suliyatini oshiradi.

Savollarni yechishda talabalarda tinglash, muloqot olib borish, turli fikrlarni taqqoslash, o'zgalar fikriga befarq qaramaslik kabi odatlar shakllana boradi. Masalani yechish va hukm chiqarish, analistik fikrlash qobiliyatini rivojlanadi, munozara yuritish, yechimlarni to'g'ri topish madaniyati o'zlashtiriladi.

## XULOSA

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy ta'limgiz tizimida muhim ahamiyatga ega. Bu kompetentlik, pedagogning faoliyatida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarni ma'haviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishini nazarda tutadi. Shu bilan birga, bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish ta'limgiz jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Bu kompetentlik nafaqat ularning professional faoliyatida, balki jamiyat hayotida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, ta'limgiz muassasalarida bu yo'nalishda maxsus dasturlar va treninglarni tashkil etish zarur.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Миллий истиқбол ғояси асосий тушунчалар, атамалар ва тамоиллар (қисқача изоҳли тажрибавий) лугат. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2002. – Б.12-15.
- Норлиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлиги ва таъсир хусусиятлари: Автореферат. фалсафа фан. ном. дисс. – Тошкент.: 2011. 10-б.
- Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 2008. –238 б.
- Очилдиев А. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси. – Тошкент: Ижод дунёси, 2002. 31-б.; Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Мухаррир. 2009. 48-б.
- Райзберг Б.А. Современный социоэкономический словарь. – М., 2012. 171-с.
- Третьяков П.И. Практика управления современной школой (Опытпедагогического менеджмента) / П.И.Третьяков. – М.: Изд-во МГПУ, 1995.–204 б.